

IJTIMOYIY-HISSIY KO'NIKMALARNI RIVOJLANTIRISHDA XORIJIY TAJRIBALAR TAHLILI

Z.O.Rashidova

Pedagogika va psixologiya kafedrası dotsenti v.b.,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), O'zDJTU

Annotatsiya. Mazkur maqolada bolalarda ijtimoiy-hissiy ko'nikmalarni rivojlantirish bo'yicha xorijiy tajribalar tahlil qilingan. Ijtimoiylashuv jarayoni, hissiy rivojlanish va shaxslararo munosabatlarga oid nazariy yondashuvlar mahalliy va xorijiy olimlar tadqiqotlari asosida yoritilgan. Emotsional intellekt, muloqot hamda o'yin faoliyatining shaxs ijtimoiy xulq-atvorini shakllantirishdagi ahamiyati asoslab berilgan. Maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanish xususiyatlari, oila, ta'lim muhiti va madaniy omillarning ta'siri alohida tahlil qilingan. Shuningdek, ijtimoiy-hissiy kompetensiyalarni rivojlantirish bolalarning jamiyatga muvaffaqiyatli moslashuvi hamda ularning shaxsiy va kognitiv rivojlanishida muhim omil ekanligi ko'rsatib berilgan.

Kalit so'zlar: ijtimoiylashuv, ijtimoiy-hissiy ko'nikmalar, hissiy rivojlanish, maktabgacha yosh, shaxslararo munosabat, kommunikativ ko'nikmalar, o'yin faoliyati, emotsional intellekt, moslashuv, ta'lim muhiti.

Abstract. The article analyzes foreign experience in the development of children's social and emotional skills within the process of socialization. It examines theoretical approaches to socialization, emotional development, and interpersonal interaction based on the works of both local and international scholars. The role of emotional intelligence, communication, and play activities as key factors in shaping social behavior is substantiated. Special attention is given to the developmental characteristics of preschool children, as well as the influence of family, educational environment, and cultural factors on personality formation. The study highlights that the development of social and emotional competencies is a crucial condition for successful adaptation to society and further personal and cognitive development.

Keywords: socialization, social-emotional skills, emotional development, preschool age, interpersonal interaction, communication skills, play activity, emotional intelligence, adaptation, educational environment.

Аннотация. В статье представлен анализ зарубежного опыта развития социально-эмоциональных навыков у детей в процессе социализации. Рассматриваются теоретические подходы к пониманию социализации, эмоционального развития и межличностного взаимодействия, раскрытые в трудах отечественных и зарубежных ученых. Обоснована роль эмоционального интеллекта, общения и игровой деятельности как ключевых факторов формирования социального поведения личности. Особое внимание уделено особенностям развития детей дошкольного возраста, влиянию семьи, образовательной среды и культурных факторов на становление личности. Показано, что развитие социально-эмоциональных компетенций является важным условием успешной адаптации ребенка к обществу и его дальнейшего личностного и когнитивного развития.

Ключевые слова: социализация, социально-эмоциональные навыки, эмоциональное развитие, дошкольный возраст, межличностное взаимодействие,

коммуникативные навыки, игровая деятельность, эмоциональный интеллект, адаптация, образовательная среда.

Ijtimoiylashuv jarayonida bola jamiyat, ijtimoiy munosabatlar, ijtimoiy maqom, ijtimoiy xulq-atvorning me'yor va qoidalari haqidagi turli bilimlarni, jamiyatga ko'nikishiga yordam beruvchi turli ko'nikma va malakalarni o'zlashtiradi. Bu jarayon, ayniqsa, bolalikda juda jadal sur'atlar bilan amalga oshadi. Ma'lumki, bola besh yoshgacha uning keyingi hayotida o'z aksini topuvchi nihoyatda ko'p bilimlarni oladi.

Ijtimoiy va hissiy rivojlanish o'z-o'zini ifoda etish, his-tuyg'ularni boshqarish, o'zi va atrof-muhit bilan uyg'un bo'lish qobiliyatlari sifatida qaraladi. Ushbu rivojlanish bolalarning kelajakdagi muvaffaqiyatlariga ta'sir ko'rsatadi. Bolalarning ijtimoiylashuvi hamda hissiyotlarini namoyon qilishlari bevosita tengdoshlari va kattalar bilan muloqoti orqali namoyon qilinadi. 6-7 yoshdagi bolada tengdoshlari bilan muloqot qilish, boshqalar bilan o'zini solishtirish, taqlid qilishga nisbatan ehtiyoj kuchayib boradi. Faoliyatda (o'yin, mahsuldor faoliyatda) tengdosh - sherigi sifatida qatnashadi. Tengdoshlari bilan muloqot davrida bolalar o'yinda va boshqa faoliyatda ma'lumotlar, rejalar, vazifalarning taqsimlanishi asosida birgalikda faoliyat olib borishga intiladi. Yoshga qarab muloqot bolaning hissiyotini, o'zaro tushunishini, tengdoshlariga nisbatan hissiy yaqinlikni tasvirlay boshlaydi. 7 yoshga borib bola tengdoshining shaxsiy xususiyatlarini ajrata boshlaydi ("qiziqarli o'yinlarni o'ylab topadi", "yaxshi yuguradi", "juda yaxshi bola" va boshqalar).

Bola ijtimoiylashuvining ajralib turuvchi xususiyati, uning jamiyat ilgari surayotgan yurish-turish me'yorlariga baho berishi va nazorat qilishining qiyinligidadir. U bularni faqat o'zlashtirib boradi, shuning uchun ham bola shaxsining ijtimoiylashuv jarayonida ota-onalar, qarindoshlar, ular bilan ishlayotgan mutaxassislarining (psixolog, shifokor, pedagog va shu kabilar) ta'siri katta bo'lib, bolalarni hayotda zarur ijtimoiy bilimlarni ertaroq va yaxshiroq o'zlashtirishlari, ularni hayotda qo'llashga intilishlari aynan ularga bog'liqdir.

"Ijtimoiylashuv" tushunchasi ilk bor 1940-yillar oxiri 1950-yillar boshlarida amerikalik psixolog hamda sotsiologlar A. Park, D. Dollerd, Dj. Kolman, A. Banduraning ishlarida alohida yo'nalish sifatida talqin qilingan [1]. Hissiyotlar insonning doimiy hamrohi bo'lib, uning barcha fikrlari va harakatlariga ta'sir qiladi. Hissiyotlar insonni ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan asoslarda tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega: insoniylik va sezgirlik. Maktabgacha yosh davrida hissiyotlar bolaning rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. Ular haqiqatni tushunishga va unga javob berishga intiladi. Xulq-atvori orqali ular kattalarga bola nimani yoqtirishi, nimani yoqtirmasligi, nimadan xafa bo'lishi haqida ma'lumot beradi. Emotsional jihatdan rivojlangan bola egosentrizmni osonroq yengib o'tadi, o'quv jarayoniga tezroq kirishadi, faoliyatda ham o'zini muvaffaqiyatliroq namoyon qiladi.

Amerikalik olimlar R.C.Pianta, M.J.Cox, K.L.Snow o'z tadqiqotlarida ijtimoiy va hissiy munosabatlar bolalarni hayotga tayyorlashini, oila a'zolari bilan o'zaro aloqalar o'rnatishda, bolalar o'zlarini kelajakda qanday ko'rishi, mustaqil dunyoga qadam qo'yishda xavfsiz his qilishi kabi masalalarni o'rganishga urg'u qaratilgan [2]. Maktabga tayyorlov guruhi bolalari ko'pincha o'zining shaxsiy axloqiy sifatlarini boshqaradi va bu sifatlarni anglay boshlaydilar, hissiy holatlarni ajrata boshlaydilar. Mustaqilligi oshadi, bolalar tomonidan baholash va o'z-o'zini baholashga nisbatan tanqid ortadi. Bolalar birinchi navbatda tengdoshlarining va o'z-o'zlarining sifat va

xususiyatlarini baholaydilar va shunga qarab o'zlarining guruhdagi mavqeilarini aniqlab olishlari mumkin.

M.J.Elias, J.E.Zins, K.S.Weissberg, M.T.Frey, N.M.Greenberg, R.Kessler, T.P.Shriver tomonidan 1994 yilda tashkil etilgan, hozirda Chikagodagi Illinoys universitetining psixologiya bo'limida joylashgan, ijtimoiy va emotsional bilim olish Akademiyasi (AIEBH) da hissiy ta'lim olish, ijtimoiy bilim olish, emotsional holat, nizolarni bartaraf etish yo'llari chuqur asoslab berilgan [3].

D.M.Bolduin ijtimoiylashuv jarayonini izohlar ekan uni bolani o'zini baholashi va shaxsiy sifatlariga ham ta'siri haqida to'xtalib o'tadi. Olim o'yin ijtimoiy ahamiyatga ega ekanligini asoslagan. O'yin nafaqat mashq qilish shakli balki, ijtimoiylashuv instrumenti sifatida katta o'rin tutishini ta'kidlab, bolalar o'yin orqali hayotdagi murakkab ijtimoiy munosabatlarga tayyorlanishini aytadi. Amerikalik sotsiolog Margaret Mid "Bolalarni ijtimoiylashuvi turlicha madaniy ko'nikmalar hamda an'analarga tayangan jamiyatda amalga oshadi" degan fikrni ilgari suradi. M.Mid ilmiy qarashlarida turlicha madaniy ko'nikmalar bola shaxsini o'zini-o'zi anglashini shakllantiradi, o'zini baholash mazkur millatning madaniy an'analarga bog'liqligi, bolaga ta'lim-tarbiya berishning xususiyatlari, oilada o'zaro muloqot qilish ko'nikmasi yetakchi ekanligini asoslaydi.

6-7 yoshdagi bolalarda muloqotga kirishish malakasi yuqori bo'ladi. Bolalar tomonidan beriladigan taklif, iltimos, baholanish ancha asoslangan holda ifodalanadi. 7 yoshdagi bolalar hayotida tengdoshlari bilan muloqotga kirishish ehtiyoji kuchayadi. Xulq-atvor me'yorlari va qonun - qoidalarni egallash natijasida shakllangan etik me'yorlarni aks ettiradi va bu me'yorlarni faqat o'zigagina nisbatan ishlatmaydi. Bola shaxsi mustaqil, hech kimga qaram bo'lmagan holda shakllana boshlaydi.

G.Yildirim, N.N.Karamanlarning fikricha ijtimoiy moslashuv ijtimoiy va hissiy rivojlanishga ta'sir qiluvchi muhim omillardan biri bo'lib, shaxsning ma'lum bir guruhga mansublik hissi va qadriyatlarini o'zaro tan olish jarayonidir. Bu jarayon inson tug'ilgandan boshlab umri davomida davom etadi, ammo eng sezitiv davr bu maktabgacha yosh davridir degan xulosani beradi [4]. G.Chubukchu va M.Gultekin ijtimoiylashuvni shaxsning tug'ilishdan to'voyaga yetguniga qadar bo'lgan davrda boshqalar bilan o'rnatadigan munosabatlari deb ta'riflashadi. Ular bola o'zi yashayotgan jamiyatning a'zosi bo'lish istagida rivojlanishini ijtimoiy rivojlanish degan xulosani berishadi.

So'nggi tadqiqotlarga ko'ra ijtimoiylashuv ko'nikmalari yaxshi rivojlanmagan bolalarda atrof-muhitga moslashishda muammolar, tengdoshlari tomonidan rad etilishi, kelajakda o'qishidagi muvaffaqiyatsizliklar, kattalar va tengdoshlari bilan munosabatlarining salbiy oqibatlari kuzatiladi. Ogelman, Sezer, Alabay va Uzar bolalarning kognitiv rivojlanishi va ijtimoiy ko'nikmalari o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganib kognitiv rivojlanish ijtimoiy ko'nikmalarga ta'sir qiladi degan xulosaga kelishdi. Kojak, Pinarjik, Ergin ham ijtimoiy ko'nikmalar va kognitiv qobiliyatlar o'rtasida aloqadorlik borligini tasdiqlab, uni ustida izlanish olib borishgan. L.S.Vigotskiy shaxslararo munosabatlarda asosiy qurol va vosita muloqot jarayoni ekanligini uqtiradi. Uning fikricha, shaxslararo munosabatlarda dastavval muloqot asosiy vosita, so'ngra esa xulq-atvor turadi. Chunki inson yakka qolgan paytda ham muloqot funksiyasini o'zida saqlaydi.

Maktabgacha yosh davrida bolalar boshqa bolalarni o'zlariga nisbatan tabiiy baholay boshlaydilar. Katta maktabgacha yoshdagi bolalarning o'z-o'zlarini

baholashlari kichik maktabgacha yoshdagi bolalarnikidek yuqori hisoblanadi. Maktabgacha yosh davrida bolaning o'z- o'zini baholashi, o'zi to'g'risidagi fikrlari to'liq, asoslangan holda kechadi. Bola o'zini, o'zining kattalar va tengdoshlari o'rtasidagi mavqeini, atrofdagilarga bo'lgan munosabatini anglay boshlaydi.

Xorijiy tajribalar tahlili shuni ko'rsatdiki, mamlakatimizda maktabgacha ta'lim-tarbiyaning me'yoriy-huquqiy hujjatlari, o'quv dasturi xalqaro tajribalarga tayangan holda ishlab chiqilgan. Xususan 6-7 yosh bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashda ijtimoiy-hissiy ko'nikmalarni rivojlantirish borasidagi metodik vazifalar dunyo hamjamiyatining umumiy g'oyalari asosida hal etilgan. Biz tadqiqotimizda yuqorida keltirilgan rivojlangan davlatlarning maktabgacha ta'limga oid dasturlaridan aynan bolalarda ijtimoiy-hissiy ko'nikmalarni rivojlantirish bo'yicha ilg'or tajribalarni asos qilib oldik. Xulosa qilib aytganda, AQSH, Fransiya, Yaponiya, Germaniya, Finlyandiya va boshqa mamlakatlarning maktabgacha ta'limga oid o'quv dasturlari mazmunida ijtimoiy va hissiy ta'limning akademik integratsiyasi dominantlik qilgan. Biz tanlagan tadqiqot mavzusi ham dolzarb ekanligi ilmiy jihatdan asoslandi. Chunki, dunyo tan olgan eng rivojlangan davlatlar tajribasida ham ijtimoiylashuv, ijtimoiy munosabatlar, hissiyotlarni ifodalash, o'z-o'zini anglash va rivojlantirishga ustuvorlik berilgan.

Adabiyotlar ro'yxati.

1. Мардиянова Б.М. Социализация как педагогическое управление // Фундаментальные исследования. – 2005. – № 3. – S. 87-88; URL: <https://fundamental-research.ru/ru/article/view?id=5892> (дата обращения: 30.05.2023).
2. Pianta, R. C., Cox, M. J., & Snow, K. L. Eager to learn: Educating our preschoolers. Washington, dc: national academies Press national research council and institute of medicine. (2000). From neurons to neighborhoods: Baltimore, md: Brookes (2007).
3. M.J.Elias, J.E.Zins, K.S.Weissberg, M.T.Frey, N.M.Greenberg, R. Kessler, T. P. Shriver CASEL Guide: Effective social and emotional learning programs - Preschool and elementary school edition. Chicago, USA. (2013).
4. Günseli Yildirim - Naşide Nur Karaman //International Periodical for the Languages, Literature and History of Turkish or Turkic Volume 11/9 Spring 2016, p. 965-978 ISSN: 1308-2140 Ankara-Turkey.
5. Абиева, Ю., & Мишиева, М. (2024). Технологические компоненты системы формирования нравственной культуры учителя. Наука и инновации, 1(1), 59–62. извлечено от <https://inlibrary.uz/index.php/ilm-fan-va-innovatsiya/article/view/32710>
6. Мишиева, М. (2023). Psixologiyada motivatsiya muammosiga yondashuvlar . Цифровизация современного образования: проблема и решение, 1(1), 132–134. извлечено от <https://inlibrary.uz/index.php/digitalization-modern-education/article/view/24702>
7. Milieva, M. G. "About psycholinguistics and neurolinguistics of bilingualism." *Issues of Science and Education* 8 (2018): 20.
8. Milieva, Muattar Gaffarovna. "Increasing Students' Learning Motivation: A Comprehensive Approach." *American Journal Of Social Sciences And Humanity Research* 5.05 (2025): 92-94.

9. Milieva, Muattar Gaffarovna. "General characteristics of training as a multifunctional method." *Academic research in educational sciences* 4.TMA Conference (2023): 762-767.
10. Muattar Gaffarovna Miliyeva, . 2024. THE POWER OF BODY LANGUAGE. HOW TO LEARN TO SPEAK BODY LANGUAGE. *American Journal Of Social Sciences And Humanity Research*. 4, 11 (Nov. 2024), 32–37. DOI:<https://doi.org/10.37547/ajsshr/Volume04Issue11-06>.
11. Милиева, Муаттар. "Talabalarda xorijiy tillarni o'rganishdagi motivatsiya va qobiliyatlari." *Наука и инновации* 1.1 (2024): 306-308.
12. Anjim Karamaddinovna Shamshetova, Pokiza Shamsiyevna Isamova, & Muattar Gaffarovna Milieva. (2023). ECOLOGICAL CRISES AND POPULATION PSYCHOLOGY. *International Journal of Pedagogics*, 3(05), 4–10. <https://doi.org/10.37547/ijp/Volume03Issue05-02>